

TARIX ZARVARAQLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODINING SAYQALLANISHI

Munavvarova Sohiza¹

¹Sh.Rashidov tumani 11 umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Morpo'latova Munisa²

²Sh.Rashidov tumani 11 umumta'lim maktabi o'quvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6881159>

Annotatsiya: Xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanishi ta'lim tarbiya jarayonini yanada samarali kechishining asosi. Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining axamiyati va mohiyati xaqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, adolat, jasurlik, qahramonlik, ezgulik, insonparvarlik, farovon hayot, vafo, xalqparvarlik, ertaklarning ma'nnaviy dunyosi.

Bugungi kunda maktab yoshidagi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'nnaviy axloqiy jihatdan tarbiyalash, bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshidagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlash ta'lim tashkilotlari oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda tarbiyachi o'z mashg'ulotlarida xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanishi ta'lim tarbiya jarayonini yanada samarali kechishiga yordam beradi.

. O'zbek xalqi o'ziga xos milliy urf-odat, an'analari, jasur, qahramon farzandlari, ilm-fan va san'at, davlat va jamoa buyuk namoyondalari, ona-Vatani bilan fahrlanadi. Zero, o'tmishda bu buyuk ajdodlarimiz ko'rsatgan qahramonlik, fidoyilik, ta'lim tashkilotilari tarbiyalanuvchilarida milliy g'urur tuyg'usining shakllanishi va barqaror bo'lishiga xizmat qilishi tabiiydir. Shu sababli ham milliy g'urur ramzi bo'lgan millat, xalqning o'zligini anglashi, o'zining milliy qadriyatlari, urf-odatlarini unutmasdan, ularni tiklab, avaylab, boyitib o'sib kelayotgan yosh avlodga yetkazish lozim.

Zamonaviy ta'lim jarayonida biz yangi texnologiyalardan foydalanishimiz bilan bir qatorda an'anaviy ta'limni ham esdan chiqarmasligimiz zarur. Bolalarning milliy ruhda tarbiyalashimiz, milliy urf-odatlarimizni o'rgatishimizda ularni ma'nnaviy -axloqiy jihatdan tarbiyalashimizda xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanmaslikni iloji yo'q.

Xalq og'zaki ijodi sanalgan ertak janrining keksalarimiz tomonidan bolalarga aytib berilishi, ertakni ma'noviy jihatlari bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib,

qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchan, o'tkir, ma'nodor va xalq tiliga yaqin qilib yetkazib berilishidadir.

Ertaklarning ko'pchiligidagi real hayat tasviri sarguzasht elementlar bilan qo'shib ketadi. Ertakning o'tkir maroqli syujeti, voqeа rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik kuchining - yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertak janrini buvijonlarimiz ko'proq tunda bolalarning uyquga ketishlaridan avval aytib berilishi ularning ertak olamiga uyquda sayohat qilishlariga yordam beradi.

Ma'lumki, ertaklarning g'oyaviy yo'nalishini adolat, jasurlik, qahramonlik, ezgulik, insonparvarlik, farovon hayat, vafo, xalqparvarlik kabi ma'naviy tushunchalar tashkil etadi. Shuning uchun ham momolarimiz, bobolarimiz o'z nabiralarini doimo ertak bilan siylashgan.

Kasal bo'lib qolsalar buvim,

Tuzataman shifokor o'zim.

Bor mehrimni berib buvimga,

Shirin so'zlar qo'shib so'zimga

Dardlarini unutib buvim,

Jilmayarlar shifokor qizim.

Qulog'imga yoqib so'zlarining,

Dardlarimga davo so'zlading

Ulashaylik insonlarga sehr,

Shirin so'zni qilib guldasta.

Bersak qalb qo'ri ila mehr,

Bo'lmas edi , insonlar xasta.

Axamiyatli jixati, buvijonlarimiz tomonidan ertaklarimiz xar qancha sayqallanmasin,o'zining ma'nodorligini, mazmunini, jozibadorligini eng muximi -ta'limiy va tarbiyaviy axamiyatini xech qachon yo'qotmaydi. Bu esa xar bir xalqning , millatning milliy madaniyatini, an'analari va qadriyatlarini asrlar osha xalq og'zaki ijodi orqali kelajak avloddan-avlodga yetkazib berishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, halqimizning ko'p asrlik an'analari, qadriyatları, mif, afsona va dostonlarida, bizning milliyligimizni aks ettiruvchi, muqaddas xilqatlar ko'rinishida asrdan asrga o'tib xalqimiz hayatida o'z qimmatini saqlab kelmoqda. O'zbek xalqining milliy g'urur umuminsoniy qadriyatlar katta bir jarayoni tashkil etadi. Bizning milliy xususiyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lanib ketgan. Shu sababli ham milliy g'urur ramzi bo'lgan millat, xalqning o'zligini anglashi, o'zining milliy qadriyatları, urf-odatlarini

unutmasdan, ularni tiklab, avaylab, boyitib o'sib kelayotgan yosh avlodga yetkazish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamasoli Jumaboyev "Bolalar adabiyoti va folklori" O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti T.2006 [1/51]. 214 bet.
2. Mo'minjon Sulaymonov "O'zbek xalq og'zaki ijodi" «Ibrat » T.2008 [3/4,1].96 bet.
3. www.ziyonet.uz.
- 4.[www.google uz](http://www.google.uz).